XALQ DEPUTATLARI BULUNG‘UR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-23-137-7-93-K/25 Bulung‘ur tumani

Bulung‘ur tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-24-191-7-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq, Bulung‘ur tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 24-oktabrdagi 01/32/1640-sonli xati hamda Bulung‘ur tuman soliq inspeksiyasining 2025-yil 9-dekabrdagi M-12372-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining yigirma uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-24-191-7-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Bulung‘ur tuman budjetining 2026-yilgi daromadlari **131 144,4 mln.so‘m** va xarajatlari esa **131 144,4 mln.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Bulung‘ur tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **989,0 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman budjetidan 2026-yilda hududiy

budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 767,0 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlari hamda jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlari 3-ilovaga;

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 4-ilovaga;

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Ibragimov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (T.Uljayev), tuman soliq inspeksiyasi (B.Isoqov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal

xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish, xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi O.Axmedov hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Ibragimov zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **ASTONOV SAMANDAR MUSTAFOKULOVICH**

Xalq deputatlari Bulung‘ur tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-137-7-93-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Bulung‘ur tuman mahalliy budjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

ming.so‘mda

№	Daromad turlari	Jami
X	**JAMI DAROMADLAR**	**131 144 440**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	1 245 680
2	Foyda solig‘i	2 033 000
3	Aylanmadan olinadigan soliq	7 158 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	40 451 600
5	Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan	777 000
6	Акциз солиғи жами	1 822 800
	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	*1 822 800*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 018 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	11 100 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	19 827 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	35 754 560
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1 378 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 511 000
	Shundan: Qishloq xo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	*5 183 000*
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	*-2 073 200*
13	Davlat boji	910 400
14	Yig‘imlar	425 500
15	Jarimalar	697 100
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	108 000

Xalq deputatlari Bulung‘ur tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-137-7-93-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Bulung‘ur tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming.so‘mda

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**131 144 440**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*40 143 621*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*4 326 000*
2	Madaniyat bo‘limi	*8 309 105*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*4 980 256*
4	Sport bo‘limi	*4 692 754*
5	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*4 411 796*
6	Irrigatsiya bo‘limi	*1 850 000*
7	Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	224 073
8	Hokimiyat	*49 155 539*
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	*2 417 770*
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*2 114 286*
	Madaniyat bo‘limi	*146 526*
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*390 602*
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	*274 019*
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	*605 060*
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*761 298*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*291 052*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*22 779 491*

	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 904 000*
	Zaxira jamg‘armasi	*1 767 044*
9	Hokimiyat *(O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)*	*981 831*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*101 236*
	Axborot-kutubxona markazlari	*880 595*
10	Obodonlashtirish boshqarmasi	16 395 465

Xalq deputatlari Bulung‘ur tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-137-7-93-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Bulung‘ur tumanidagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Mahalla fuqaro yig‘inlari nomi	Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun		Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun	
		Koeffitsiyent	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)	Koeffitsiyent	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)
1	Qo‘ng‘irot MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
2	Navbahor MFY	1,50	458,37	1,19	52 395 700
3	Mirzaariq MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
4	Mingchinor MFY	1,02	311,69	1,25	55 037 500
5	Mingtepa MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
6	Mehrjon MFY	1,50	458,37	1,25	55 037 500
7	Lalmikor MFY	0,70	213,91	0,85	37 425 500
8	Kichik Kildon MFY	1,02	311,69	1,12	49 313 600
9	O‘roqli MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
10	Kildon MFY	1,02	311,69	1,25	55 037 500
11	Nebo‘sa MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
12	Avliyo Parpi MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
13	Ulug‘bek MFY	1,50	458,37	1,19	52 395 700
14	Beshkuvi MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
15	Beshqo‘ton MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
16	Bog‘bon MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
17	Bo‘dana MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
18	Bulung‘ur MFY	1,50	458,37	1,19	52 395 700
19	Bulung‘urariq	1,02	311,69	1,00	44 030 000

	MFY				
20	G‘o‘bdin MFY	0,70	213,91	0,85	37 425 500
21	Qirqshodi MFY	1,02	311,69	1,19	52 395 700
22	Gulzor MFY	1,02	311,69	1,25	55 037 500
23	Gulobod MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
24	Dehqonobod MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
25	Do‘stlik MFY	1,50	458,37	1,19	52 395 700
26	Zarafshon MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
27	Isori O‘roqli MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
28	Istiqlol MFY	1,50	458,37	1,19	52 395 700
29	Kaptarxona MFY	1,02	311,69	1,06	46 671 800
30	Kattaqishloq MFY	1,02	311,69	1,12	49 313 600
31	Alisher Navoiy MFY	1,02	311,69	1,12	49 313 600
32	Guliston MFY	1,50	458,37	1,25	55 037 500
33	Niyozmat MFY	0,95	290,30	0,85	37 425 500
34	Amir Temur MFY	1,50	458,37	1,19	52 395 700
35	Oqtepa MFY	1,02	311,69	1,19	52 395 700
36	Xo‘jabachcha MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
37	Xo‘jamazgil MFY	0,70	213,91	0,85	37 425 500
38	Changal-1 MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
39	Chorbog‘ MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
40	Nurli yo‘l MFY	1,02	311,69	1,12	49 313 600
41	Cho‘yantepa MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
42	Erganakli MFY	1,02	311,69	1,06	46 671 800
43	Esonturdi MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
44	Yangiobod MFY	1,02	311,69	1,19	52 395 700
45	Yangiariq MFY	1,02	311,69	1,19	52 395 700
46	Yangiqo‘rg‘on MFY	1,50	458,37	1,14	50 194 200
47	Elobod MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
48	Samarqand MFY	1,50	458,37	1,19	52 395 700
49	Oqtosh MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
50	Olmazor MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
51	Suluvqo‘rg‘on MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000

52	Saylitepa MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
53	Fozil Yo‘ldosh MFY	1,02	311,69	1,19	52 395 700
54	Saxovat MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000
55	Sariqipchoq MFY	1,02	311,69	1,00	44 030 000

Izoh: Soliq stavkalari va koeffisiyentlarni qo‘llash maqsadida quyidagilar inobatga olinadi.

Jumladan, Avliyo Parpi mahallasi Xo‘jamazgil mahallasiga qo‘shilganligi bilan soliq stavkalari alohida, Bo‘dana mahallasi Fozil Yo‘ldosh mahallasiga, Do‘stlik mahallasi Istiqlol mahallasiga, Isori O‘roqli mahallasi O‘roqli mahallasiga, Mirzaariq mahallasi Dehqonobod mahallasiga, Sarqipchoq mahallasi Kildon mahallasi tarkibiga qo‘shilgan.

Soliq stavkalarini qo‘llash jarayonida birlashgan mahallar uchun soliq stavkalari yuqoridagi ilovaga muvofiq aloxida aloxida qo‘llaniladi.

Xalq deputatlari Bulung‘ur tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-137-7-93-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

(qishloq xo‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

ming so‘mda

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Bulung‘ur tumani	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20

Xalq deputatlari Bulung‘ur tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-137-7-93-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

ming so‘mda

T/r	**Tuman va shaharlar nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Bulung‘ur tumani	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,30	1,30